

## HOZIRGI DAVRDA KASBGA YO‘NALTIRUVCHI TA‘LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARINING BURCH MA‘SULIYATI

Ziyaeva Nilufar Sobirjonovna,

IIV Samarqand akademik litseyi Huquqiy va ijtimoiy-  
gumanitar fanlar kafedrası yetakchi o‘qituvchisi

### Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi davrda kasbga yo‘naltiruvchi ta'lim muassasalari, ya'ngi akademik litsey va kolledj o‘qituvchilarining burch va ma'suliyati to‘g‘risida zaruriy ma'lumotlar va xulosalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta'lim-tarbiya, zamonaviy o‘qituvchi, kasbiy mahorat, pedagogik faoliyat, o‘qituvchi ma'naviyati va madaniyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 30 sentyabrdagi o‘qituvchilarning kasb bayrami munosabati bilan o‘qituvchi va murabbiylarga yo‘llagan tabrigini, shunday so‘zlar bilan boshlaydi - “Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda o‘z hayotini dunyodagi eng mashaqqatli va sharaflı ishga bag‘ishlab kelayotgan barcha O‘zbekiston pedagoglarini O‘qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami bilan samimiy muborakbod etaman. Biz ustoz zotini azaldan otaday ulug‘ deb biladigan, hamisha boshiga ko‘tarib e'zozlaydigan ma'rifatparvar xalq farzandlarimiz. Har bir inson hayotda qanday yutuqqa erishgan bo‘lsa, ularda qadrdon o‘qituvchi va ustozlarining beqiyos hissasi borligini umrbod minnatdorlik bilan eslaydi. Shaxsan men o‘qituvchi deganda — zamon bilan hamqadam bo‘lgan jonkuyar, ziyoli shaxsni, maktab deganda – bilim va ma'rifat yog‘dusi taralib turadigan, Uchinchi Renessans poydevori qo‘yiladigan tabarruk maskanni ko‘z oldingga keltiraman. Biz, ota-onalar o‘zimizning eng katta boyligimizni - aziz farzandlarimiz kelajagini siz, muhtaram ustozlar qo‘liga ishonib topshirganmiz”.

Darhaqiqat, ushbu so‘zlarning ortida o‘qituvchilarga katta ishonch va ulkan burchiy ma'suliyat borligini his qilishimiz mumkin. Burch mas'uliyati nima?

Ma'lumki, huquq shaxsga tabiat, jamiyat, davlat tomonidan beriladigan harakat turi bo‘lib, burch esa jamiyat va davlat tomonidan belgilangan va huquqiy normalarda o‘z aksini topgan talablarni bajarish zaruriyatidir. Burch asosan qoidalardan, axloqiy normalardan kelib chiqib, shaxs tug‘ilganidan to umrining oxiriga qadar davom etadi.

Burch bajarilmaganda huquqiy ta'sir choralari qo‘llaniladi.

Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda ob'ektiv munosabatlar ifodalanadi. Ya'ni, u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanib, imon-e'tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq.

Burch nisbiy tushuncha bo'lib, u vazifaning qandayligi va kishi oldidagi majburiyatiga qarab turlicha bo'ladi. Ya'ni, milliy burch, ijtimoiy burch, umuminsoniy burch, farzandlik burchi, ota-onalik burchi, shaxsiy burch va boshqalar. Hozirgi sharoitda insonning tabiat va avlodlar oldidagi burchi yangicha mazmun kasb etib bormoqda. Oilaviy burch esa jamiyat oldida turgan maqsadlar bilan yanada uyg'unlashmoqda. Bizda ona Vatanga, xalqqa xizmat qilish eng ulug' va sharaflı burch hisoblanadi.

Shuningdek, ayniqsa kasbga yo'naltiruvchi ta'lim muassasalari o'qituvchilaridan quyidagi burch mas'uliyatlari talab qilinadi:

o'qituvchi, eng avvalo, mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisi bo'lishi;

tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehri, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning mehri, hurmatiga sazovor bo'lishi;

jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi;

ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi;

o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi;

pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi;

kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi;

u ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsligini bilishi;

kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqat, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi;

u nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi; jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan xoli bo'lishi;

kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush

taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi;

ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisi bo'lishi lozim.

Shuningdek, o'qituvchi, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi; o'qituvchilar unutmashliklari kerakki, o'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrining aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchilarning (yoki hamkasbi, ota-onalar) muvaffaqiyatlarini e'tirof etishlari, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 30 sentyabrdagi o'qituvchilarning kasb bayrami munosabati bilan o'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan tabrigi;
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 2017.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: O'zbekiston, 1992, 160 b.
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: TDPU, 2003.
5. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T.: O'zMU qoshidagi OPI, 2003.